

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh. T.Axmadjonova	Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics.....	983
Sh. T.Axmadjonova	A study on the characteristics and types of public speaking in english.....	986
Sh. Sh.Dadabayeva	Expression of comparative relation in language.....	990
N.X.Alieva	Evolution of new phraseological units in the era of digitization.....	997
I.M.Jo'rayev	Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi.....	1001
O.Q.Xasanova	Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1005
И.Ф.Порубай	Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка.....	1010
D. Sh.Rasulova, N.R.Gafurova	Gender study of forms of references in english languages.....	1019
N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova	Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages.....	1023
I.M.Qo'chqarov	Methods of teaching english.....	1028
N.Z.Axmadjonov	Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida).....	1031
Z.M.Xalilova	Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi.....	1036
G.R.Tashmatova	Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений.....	1040
Sh.A.Nuraliyeva	Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'rni.....	1044
Z.M.Abdullayev	Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida).....	1047
N.Z.Axmadjonov	Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi.....	1050
D.X.Madazizova	Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari.....	1055
R.U.Axrorova	«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini.....	1059
R.U.Axrorova, L.B.Ikromova	Adabiy asarlarda maqollarning o'rni.....	1064
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi.....	1069
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi.....	1074
Sh.O.Abdiloyev	Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida.....	1078
N.Q.Adamboeva	Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi.....	1083
T.Z.Mingboyeva	The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels.....	1087
D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva	Omma oldida nutq qilishdagi qo'rquv sabablari va yechimlari.....	1091
R.A.Ortiqov	Роль и значение компьютерных игр в образовании.....	1095



UO'K: 811.111'373.7

JADID ADABIYOTIDA OILA VA JAMIYAT TAQDIRI MASALASI

ПРОБЛЕМА СУДЬБЫ СЕМЬИ И ОБЩЕСТВА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

THE PROBLEM OF THE FATE OF FAMILY AND SOCIETY IN JADID LITERATURE

Jo'rayev Islombek Mamasodikovich 
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Insoniyat tarixida shunday daholarning bo'lganki, ular o'z hayotini, ijodini, fikr zakovatini xalqning bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog'on qilishga bag'ishlaganlar. Darhaqiqat, bir qancha millatparvar adiblar qatag'on tufayli ma'naviyatimiz tarixidan yulib olinganiga qaramay, ular merosini o'rganish, asarlarida ko'tarilgan ma'naviy-axloqiy muammolarni tadqiq etish bugungi istiqloq sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Zero ular ijodining mohiyati jamiyat va millat niyatlarini ifodalagan bo'lib, xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilgan. Mahmudxoja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'ipon, Abdurauf Fitrat kabi fidoyi zotlar nafaqat badiiy ijodlari, balki amaliy faoliyatlari bilan ham fidoyilik ko'rsatganlar.

Har bir millat uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. Ening el bo'lishi o'ziga xos tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda kechadi. Jamiyat bo'lagi bo'lgan shaxsning shakllanishiga esa u mansub bo'lgan millatning ozodligi, farovon maishiy turmushigina emas, balki, butun ijtimoiy munosabatlar majmuasi ta'sir ko'rsatadi. Inson ma'naviy qiyofasini esa ana shu ijtimoiy munosabatlar belgilaydi. Badiiy asarda muayyan xalq ruhini, xohish-istagi, milliy mentalitetini haqqoniy ifodalay olish darajasi esa so'z san'atkorining ko'p jihatdan ana shu xalq bilan qay darajada ruhan yaqinligi bilan belgilanadi. Maqolada Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi asosida oilaviy muhit, shaxs tanazzuli va ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi inqirozlarning o'zaro bog'liq va uyg'un jihatlari tahlilga tortilgan.

Аннотация

На протяжении всей истории человечества всегда были блестящие художники, которые посвятили свою жизнь, идеи и изобретательность тому, чтобы сделать жизнь людей лучше сейчас и лучше завтра. Несмотря на то, что ряд писателей-националистов были подавлены и вычеркнуты из истории нашей духовности, изучение их наследия и поднятых ими этических и духовных вопросов остается актуальным в современном независимом мире. Поскольку основной целью их работы было служить средством выражения чаяний нации и общества и установления национальной идентичности. Среди лиц, проявляющих самоотверженность, - Махмудхожа Бехбуди, Абдулла Кадири, Абдулхамид Чолпон и Абдурауф Фитрат. Их акты самоотверженности выходят за рамки их творческих усилий.

Каждая нация создается в результате длительного исторического процесса развития. Его создание происходит в определенных природных социально-экономических средах. Представителя общества формирует вся паутина социальных отношений, помимо свободы страны, к которой он принадлежит, благополучной семейной жизни, социальной и культурной среды. Духовный образ человека формируется этими социальными отношениями. Степень духовной связи художника с нацией во многом влияет на его способность точно передать в произведении искусства дух, желания и национальное мышление этой нации. В статье на основе жизни и творчества Абдуллы Кадири анализируются взаимосвязанные и гармоничные аспекты семейной среды, упадка личности и кризисов в социальной и духовной жизни.

Abstract

There have always been brilliant artists throughout human history who have dedicated their life, ideas, and inventiveness to making people's lives better now and better tomorrow. Even though a number of nationalist writers were suppressed and erased from our spirituality's history, studying their legacy and the ethical and spiritual questions they highlighted remain relevant in today's independent world. Since the fundamental purpose of their work was to serve as a means of articulating the aspirations of the nation and society and to establish the nation's identity. Individuals exhibiting selflessness include Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Qadiri, Abdulhamid Cholpon, and Abdurauf Fitrat. Their acts of selflessness extend beyond their creative endeavors.

Every nation is created through a protracted historical development process. Its creation occurs in certain natural socioeconomic environments. A representative of society is formed by the entirety of the web of social relationships, in addition to the freedom of the country to which he belongs, a prosperous family life, and the social and cultural milieu. A person's spiritual image is shaped by these social relationships. The degree to which an artist is spiritually connected to a nation greatly influences their capacity to accurately capture in a work of art that nation's spirit.

desire, and national mindset. Based on Abdulla Qodiri's life and work, this article examines the linked features of the familial environment, personality decline, and crises in social and spiritual life.

Kalit so'zlar: *Tarixiy voqealik, shaxs tarbiyasi, maishiy turmush, oilaviy muhit, ijtimoiy hayot, ma'naviy-axloqiy tubanlik, ijtimoiy inqiroz.*

Ключевые слова: *Историческая реальность, личностное воспитание, бытовая жизнь, семейная среда, социальная жизнь, духовно-нравственный упадок, социальный кризис.*

Key words: *History, individual education, household life, family environment, society, spiritual and moral deterioration, and social challenges.*

KIRISH

Ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan har bir voqea-hodisa badiiy adabiyotda u yoki bu darajada o'z aksini topadi. Ijtimoiy muhit munosabatlari, unda ro'y berayotgan jarayonlar ham adiblar tomonidan badiiy tadqiq etiladi. Muayyan ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar olg'a suriladi.

XX asr boshlari adabiyoti namoyondalari xalqimiz hayotida ro'y bergan tarixiy voqea-hodisalarni baholiqudrat qalamga olgan. Jumladan, yurt ozodligi va hurriyat masalalari, shaxs va jamiyat munosabatlari, ilm-ma'rifat va inson taqdiri muammolari jadid adabiyotida bir qancha adabiy asarlarning maydonga kelishiga sabab bo'ldi. Adiblarning uslub va dunyoqarashlari, xulosa va pozitsiyalari turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, yangi davr, yangicha qarashlar, zamonaviy munosabatlar so'z san'ati namunalari tobora keng qamrov kasb etib bordi. XX asr boshlari adabiyotining ulkan namoyandalari Behbudiy, Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Avloniy asarlaridagi Vatan va istiqloq, jamiyat va inson taqdiri mavzusi, ulardagi qahramon ma'naviyati masalalarini yangi davr, ular mansub bo'lgan muhit nuqtai nazaridan, Istiqloq mafkurasi talablari asosida tahlil va tadqiq etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jadid adabiyoti vakillari bo'lgan Behbudiy, Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon va boshqalarning pozitsiyasi, nuqtai nazari turlicha bo'lishiga qaramay, ular qalam bilan murojaat qilayotgan voqelik markazida hurriyat, vatan, inson taqdiri va uning xarakteri, ruhiy olami o'rin egallaydi. Garchi har bir yozuvchi janr, syujet va kompozitsiya tanlashda o'ziga xos usul qo'llasa-da, qahramon obrazi va xarakter yaratishda, voqealar tahlili, muammolar tadqiqida muayyan muhit vakili bo'lgan shaxsning taqdiridan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-falsafiy xulosalar va yechimlar topishga harakat qiladilar. O'zbek romanchiligining asoschisi bo'lgan Abdulla Qodiriy adabiy merosida maishiy turmush va ijtimoiy hayot mavzusining uyg'unlikda va san'atkorona ishlanishi adabiyotimizning keyingi davrlar vakillari ijodiga ham ilhom baxsh ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abdulla Qodiriy o'z ijodiy faoliyati davomida epik janrga mansub romanlari, hikoyalari orqali ilm-ma'rifat, erk va ozodlik, yangi davr kishisi xarakteri qirralarini ifodalovchi, shaxs va jamiyat, oila hamda ijtimoiy-siyosiy hayot munosabatlari, inson hamda vatan taqdirini belgilovchi masalalarni o'zida akslantiruvchi ko'plab namunalar yaratgan. Ana shu asarlardagi g'oyaviy-falsafiy maqsadlarning badiiy ifodasi, yangi inson xarakterini ochish usul hamda vositalarini, qolaversa, mazkur adibning ijodiy faoliyatini o'rganish va ilmiy-ijodiy tadqiq etish qiziqarli natijalarni beradi.

Mumtoz adabiyotimizdan boshlab to bugungi adabiy jarayongacha inson va jamiyat taqdiri, muhit va tarixiy sharoit tufayli maydonga keladigan voqea-hodisalar, shaxs erki va ozodlik masalalariga katta e'tibor berib kelingan. Nafaqat she'riyat, balki nasriy namunalarda ham mazkur hayotiy muammolarning el-yurt ravnaqidagi beqiyos o'rni e'tirof etib kelindi. Lekin Qodiriy ijodida bu mavzuning maxsus o'rganilishi shu tizim bo'yicha qilingan ishlarga yangi mazmun qo'shadi.

Yetmish yildan ziyod davom etgan bunday biryozlama mafkuraviy kurash o'zining qaltis asoratlarini qoldirdi. Eng muhimi, sho'rolar hukmronligi davrida tarixiy-ijtimoiy bilimlarimiz real voqelikdan uzilib qolganligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Millat uchun qayg'urgan, ona yurt ravnaqi yo'lida qurbon bo'lganlar, jumladan jadid adabiyoti namoyandalarning adabiy-madaniy merosidan uzoq yillar bebahra yashadik. Ko'p asrlik qadriyatlarimiz bilan o'zaro bog'liq bo'lgan diniy e'tiqod ham davlatning qat'iy nazorati ostiga olinishi xalqimizning ijtimoiy hayotida o'zining salbiy asoratlarini qoldirganligi sir emas. Istiqloq sharofati bilan har bir narsa-hodisaga xolis nazar bilan qarash va baho berish imkoni tug'ilgan bugungi kunda yaqin o'tmishda qadriyatlarimiz bilan aloqador bo'lgan ko'p narsalarni yo'qotganligimiz ayon bo'lmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan adabiyot, jumladan, jadidchilik harakati namoyandalarning adabiy merosi, ularning asarlarida olg'a surilgan g'oyalar, adabiy qahramonlarga munosabatlarda

TILSHUNOSLIK

ham xolislik yuzaga keldi. Garchi katta qismi qatag'on yillarida yo'q qilingan bo'lsa-da, turli yo'llar va tasodiflar bilan bizgacha yetib kelgan jadid adabiyoti namunalarini Istiqlol sharoitida, hurriyat va mustaqillik mafkurasi asosida ilmiy tekshirish, izchil o'rganish imkoniga ega bo'ldik. Albatta ko'p yillar davomida vayron etilgan qadriyatlarni tiklash mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanishlarni talab qiladi. Ajdodlarimiz yosh avlod ongi va qalbida ming yillardan buyon shakllantirib kelgan, qizil saltanat hukmronligi davrida oyoqosti qilingan halollik, adolat, rostgo'ylik, ko'pchilik manfaatiga qayishish singari ma'naviy fazilatlarni tiklash oson emas. Moddiy qadriyatlar, vayron qilingan obidalar, taqiqlangan urf-odatlarini tiklash nisbatan tezroq kechadigan jarayondir. Ammo odamlar ruhiy dunyosida evrilishlarni amalga oshirish, insof, diyonat singari fazilatlarni tarbiyalash, albatta birdaniga kechmaydi. Bu borada, mumtoz adabiyotimizning tarkibiy qismi bo'lgan XX asr boshlari adabiyoti bizga yaqindan ko'mak berib kelmoqda. Shu ma'noda Qodiriy singari ulkan so'z san'atkorlari yaratgan adabiy obraz va qahramonlar kishilar ruhiyatiga, ma'naviy olamiga kuchli ma'naviy-estetik ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Shuning uchun ham jadid adabiyoti namunalarida oila va jamiyat taqdiri masalasi adabiyotning eng dolzarb va muhim muammolaridan biriga aylandi. Bu borada Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" hamda "Mehrobdan chayon" singari asarlari o'ziga xos o'rin va ahamiyatga molikdir.[2. 27] Atoqli adibimizning asarlarida ozodlik, oila va millat masalalari, shaxs obrazi turlicha yondashuvlar asosida chuqur ishlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek adabiyotida oila va jamiyat munosabatlari ifodasining maydonga kelishi o'sha davrlardagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, muhit va davr muammolari bilan ham bog'liqdir. Biz so'z yuritayotgan Qodiriy asarlaridagi maishiy-ijtimoiy masalalar uchun kurashuvchi obrazlar ana shu tarixiy zamona farzandlari sifatida ham maydonga chiqdilar. Xalq ommasining uyg'ona boshlashi, milliy qadriyatlar uchun kurashish istagi, jaholatdan qutulish, Vatanni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish orzusi tobora kuchayib borayotgan pallalarda Abdulla Qodiriy ham ijodi, ham amaliy faoliyati bilan oldingi saflarda bordi. Yangi davrning yangi qahramonlari ushbu qalam sohibi ijodida goh hayotiy-real shaxs, ba'zan majoziy-ko'chma ko'rinishlarda muallifning g'oyaviy-falsafiy maqsadlarini ifodalay boshladi. Masalan, Abdulla Qodiriy xalq ommasining asriy jaholatda qolib kelayotganini ham, ikkinchi tomondan, chor Rossiyasi amaldorlari va ingliz zodagonlarining Turkistonga egalik qilish uchun goh oshkora, goh yashirin kurash olib borayotganligini ham ko'rdi. Xalq ommasining Oktyabr to'ntarishlaridan kutgan umidlari puchga chiqqanligining ham guvohi bo'ldi. Tuzum o'zgarsa-da, ijtimoiy-siyosiy mohiyat deyarli aslidagidek qolayotganidan qayg'urdi. U bu voqea-hodisalarning nafaqat kuzatuvchisi sifatida, balki keskin jarayonlarning bevosita ishtirokchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham uning asarlarida qalamga olingan voqealar hayotiyli, adabiy qahramon esa yangicha qarashlar bilan maydonga chiqayotgan inson sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bu yangi qahramon endi boshga nima kelsa taqdiri azaldan, deya o'zini yupatib o'tirmasdan, haqsizlikka, adolatsizlikka, zulmga qarshi o'zining keskin so'zlarini ayta oladigan adabiy obrazga aylanadi. "Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa xalqimizning nima bo'lishiga aqlim yetmay qoldi. Shamayda ekanman qanotim bo'lsa, vatanimga uchsam, to'ppa-to'g'ri xon o'rdasiga tushsam-da, o'risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib, o'risning idora tartibini dasturulamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o'z elimni o'risniki bilan bir qatorda ko'rsam... Ammo o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylag'anlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish. Bu yerda so'zimni eshitkuchi birav ham bo'lmadi, bo'lsalar ham: "Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?" deb meni ma'yus qildilar. Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam ham so'ngidan to'g'ri so'zni aytganlarini bildim. Darhaqiqat mozoristonda "Hayyi alal falah" (najotga kelinglar (azon chaqirig'i) xitobini kim eshitar edi.)"[4. 18]

Ana shu so'zlarni Otabek kuyib-pishib aytayotganida uni anglovchilar oz, xayrixohlar o'z edilar. Ammo bu gaplar zamiridagi dardni hech qachon anglamaydigan, anglashni istamaydigan, o'ziga qolsa ko'rshapalakdek zulmatda hayot kechirishni istovchi Homidlar ham mavjud edi. Mana uning Otabek aytgan gaplarga munosabati: "Xudo kofirning bu dunyosini bergan!"[4. 18]

Abdulla Qodiriy ham boshqa ilg'or fikrli zamondoshlari singari uqubatli hayot yo'lini bosib o'tdi. Bir zamonlar ulug' allomalarni yetishtirib, olamga dong taratgan xalqimizning ikki tomonlama zulm ostida jaholat botqog'iga botirilishi, ilm-ma'rifatdan bebahra bo'lib qolishi, har qanday ezgu

niyatli kishining ta'qib ostiga olinishi ma'rifatparvar adibni ruhiy iskanjaga olishi tabiiy edi. Bunday ruhiy iztirob, xalqning qorong'u kelajagidan ezilish Yusufbek hoji tilidan ta'sirli ifodalangan: "Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech narsa hosil qila olmadim. Ittifoqni, ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb-ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tagimizga suv quyadigan bo'lsaq yaqindirki o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsaq o'z qo'limiz bilan kelguvsi naslimizning bo'ynig'a o'ris bo'yinturug'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirg'uvchi - biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar..."[4.294] Qodiriyning o'zi ham, ilm-ma'rifatni xaloskorlik ramzi sifatida ulug'lar ekan, keyinchalik bu yo'lga chiqish uchun yurt ozod va mustaqil bo'lishi tarixiy zarurat ekanligini his qildi. O'zi yaratgan Otabek obrazi singari asoratda qolgan xalqi taqdiri uchun qayg'urdi, najot yo'llarini axtardi.

XULOSA

Har bir davr adabiyotda o'z izini, xususiyatlarini qoldiradi. Yuqorida aytilganidek, badiiy adabiyot ijtimoiy hayotning in'ikosi, ko'zguvidir. Adabiyot o'zining insonshunoslik funksiyasidan kelib chiqib, o'z qahramonlarini davr, zamon, muhit nuqtai nazaridan tahlil qiladi, muayyan xulosalarni olg'a suradi. Shunday ekan, badiiy so'z san'atkorlari ijodiy mahsulini ularning yaratilgan davri nuqtai nazaridagina emas, bugungi kun mezonlari bilan ham baholash muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lutfiddinova X. Yozuvchining estetik ideali va obraz. Toshkent. "O'zbekiston", 1994.
2. Normatov U. Qodiriy mo'jizasi. Toshkent. 2010
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 2006.
4. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Toshkent. 1992
5. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. Toshkent. 1992